

SHUKUR XOLMIRZAYEVNING O'ZBEK ADABIYOTIGA
QO'SHGAN HISSASI

Termiz davlat universiteti
O'zbek filologiyasi fakulteti
3-bosqich talabasi
Abdurahmonova Farangiz

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek adabiyotida o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan taniqli yozuvchi Shukur Xolmirzayevning hayot yo'li va uning ijodidagi masalalarning bugungi kundagi ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, adibning asarlarining badiiy tahlili hamda adibning o'zbek so'z san'atida tugtgan beqiyos o'rni haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: Shukur Xolmirzayev, o'zbek adabiyoti, hikoyanavislik, milliy ruh, realizm, badiiy mahorat, qahramon xarakteri, hayotiylik, syujet va kompozitsiya, ijtimoiy muammolar, inson psixologiyasi, til va uslub, badiiy tasvir, an'ana va zamonaviylik.

Avvalambor, o'zbek adabiyotining xazinasini shunday benazir iste'dod egalarini ko'rganki, unda ulug' adiblar bor. Shulardan Surxon vohasida yetishib chiqqan taniqli yozuvchilardan biri — Shukur Xolmirzayevdir. Shukur Xolmirzayev o'zbek adabiyotiga juda katta hissa qo'shgan.

Juda ko'p adiblar borki, ular turli janrlarda va turli sohalarda birday qalam tebrata oladi. Shukur Xolmirzayev ham shunday adiblardan biri. Lekin yozuvchining ijodida hikoya va esse janriga juda ko'p urg'u berilgan va uning hikoyalari mukammal obrazlarni yaratishga qaratilgan, desak mubolag'a bo'lmaydi.

O'zbek adabiyotida juda ko'p janr va sohalarda qalam tebratgan ushbu ijodkorning ko'plab mashhur asarlari mavjud. Jumladan, "Bodom qishlog'i", "Ozodlik", "Yashil niva", "Xumor", "To'lqinlar", "O'n sakkizlik", "Qirmizi",



“Kim bor” kabi mashhur hikoyalari hamda “So‘nggi bekat”, “Dinazor” kabi romanlarini ko‘rish mumkin.

Shukur Xolmirzayev ana shunday iste’dodli va serqirra yozuvchilardan biridir.

Misol uchun, jahon adabiyotida amerikalik yozuvchi O. Genrining, rus adabiyotida esa Chexovning hikoyalari ideal deb tan olingan. Biz esa o‘zbek adabiyotida ustoz adib Abdulla Qahhorni va uning shogirdi deb e’tirof etilgan Shukur Xolmirzayevni hikoyanavislikda cho‘qqiga chiqqan, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Chunki uning hikoyalarida so‘zlar juda qisqa, lekin ma’no juda ko‘p. Shuning uchun uning hikoyalarini yashirin ma’nodagi durlar, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Chunki dur kichkina, lekin qimmatbaho. Shukur Xolmirzayevning hikoyalari ham xuddi shunday — qisqa, ammo chuqur ma’noga ega.

Bu jihatdan u juda ko‘p ma’nolarni ifodalay oladi.

Shukur Xolmirzayev ikki asrni ko‘rgan ijodkorlardan biridir. Yigirmanchi hamda yigirma birinchi asr voqealari aynan uning asarlarida aks etgan. Shuning uchun ham uning asarlarida oldingi asrdagi SSSR qaramog‘ida bo‘lgan O‘zbekistonni hamda mustaqillikka erishib, yangi kuchga ega bo‘layotgan O‘zbekistonni ko‘rish mumkin.

Aynan Shukur Xolmirzayev ijodda komparativ metod, ya’ni taqqoslash usulidan ham foydalanadi. Masalan, “Ozodlik” hikoyasida SSSR davridagi hayot hamda keyingi mustaqil O‘zbekiston hayoti bir-biriga taqqoslab ko‘rsatilgan.

To‘g‘ri, O‘zbekiston o‘sha paytda mustaqillikka erishgach, birdaniga yuqori cho‘qqilarga chiqib ketishi mumkin emas edi. Chunki bu holat butun dunyoda kuzatilgan — har bir davlat avval qiyinchiliklarni bosib o‘tadi, keyin esa yuksalishga erishadi.

Shu jihatdan yozuvchi o‘sha davrdagi bozor iqtisodiyoti bilan bog‘liq muammolarni ochib bergan hamda tadbirkorlar va insonlarning xarakterini, o‘sha paytda dolzarb bo‘lgan muammolarni yorqin tasvirlay olgan.



Ba'zi asarlar bo'ladi, ularning mazmuni ancha vaqt o'tgandan keyin tushunila boshlaydi, chunki o'sha paytda sizning yoshingiz va ruhiyatingizga to'g'ri kelmaydi.

Shukur Xolmirzayevning aynan shu jihatdagi asarlaridan biri haqida qisqacha to'xtalaylik. Chunki hozirgi globallashgan dunyoda O'zbekistonda eng ko'p ko'tarilayotgan muammolardan biri — ajrim masalasidir. Ushbu asarda aynan ajrim muammosi ochib berilgan. Unda er va xotin o'rtasidagi munosabatlar, ularning bir-birini tushunmaslik holatlari chuqur tasvirlangan.

Asarning syujetiga e'tibor bersak, boshida ular bir-birini sevib, sevishib turmush qurgan bo'ladilar. Ayol boy oiladan, yigit esa oddiyroq, imkoniyati kamroq oiladan chiqqan bo'ladi. Shunga qaramay, ular sevib turmush quradilar.

Oradan yillar o'tgach, hatto ikki nafar farzandli bo'lsalar ham, ular bir-birini tushunmay qoladilar. Erkak ayol uni sevmaydi, deb o'ylaydi, ya'ni uni majburan turmushga chiqqan, deb hisoblaydi. Ayol esa erkakning unga bo'lgan sevgisi tugagan, deb o'ylaydi. Natijada ular bir-biriga eng muhim gaplarni aytmay yashaydilar va sevgilariga shubha bilan qaray boshlaydilar.

Aslida esa, ko'p hollarda katta muammolarni hal qilish uchun oddiygina bir piyola choy ustida samimiy suhbatning o'zi yetarli bo'ladi. Agar ular o'z dardlarini, tushunmovchiliklarini va ichidagi gaplarini ochiq aytishganida, balki ajrim yoqasiga kelib qolmagan bo'lardilar.

Bugungi kunda ham statistikaga qaraydigan bo'lsak, ajrimlar soni oldingi davrlarga nisbatan ortib borayotganini ko'rish mumkin. Shuning uchun bu masala juda dolzarbdir. Agar yoshlarimiz bu kabi asarlarni o'qib, undan to'g'ri xulosa chiqarsalar, ajrimlar soni kamaygan bo'lar edi, deb o'ylayman.

Barcha dunyo adabiyotida shunday asarlar borki, ular inson ruhiyatiga, qalb tarbiyasiga juda katta ahamiyatga ega. Ana shunday asarlarni kitobxonlar har doim sevib o'qiydilar. Shukrullo Mirzayev asarlari ham shular jumlasidandir.

Chunki Shukrullo Mirzayev faqat maishiy hayot yoki mahalliy muammolarni emas, balki butun dunyo uchun muhim bo'lgan global muammolarni



ham ochib bergan. Ayniqsa, uning asarlarida iqlimiy va tabiiy muammolar, ekologiya bilan bog'liq dolzarb masalalar ko'tarib chiqilgan.

Bugungi kunda, ya'ni yigirma birinchi asrda yashayotganimizda, butun insoniyatni tashvishga solayotgan ekologik muammolar, ayniqsa olimlarni jiddiy xavotirga solmoqda. Chunki dunyoda global isish jarayonlari, Antarktidadagi muzliklarning erishi kabi holatlar kuzatilmoqda.

Eng e'tiborlisi shundaki, Shukrullo Mirzayev bu muammolarni bundan ellik yil oldin ham ko'ra olgan va anglagan. Shuning uchun u tabiatni asrash kerakligini ta'kidlaydi.

Xulosa qilib aytganda, oldin insonlar yashab qolish uchun tabiatdan foydalanar, uni o'z ehtiyojlari uchun ishlata edi. Endilikda esa insoniyat yashab qolish uchun tabiatni asrashga muhtoj.

Yozuvchi aynan shu g'oyani o'z asarlarida chuqur ochib bera olgan va tabiatni asrash zarurligini uqtirgan. Shu sababli uning asarlari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan, aksincha, yanada dolzarb bo'lib bormoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Холмирзаев Шукур. Танланган асарлар: Ҳикоялар. –Т.: “Шарқ”2009.
2. Танланган асарлар: Ҳикоялар. –Т.: “Шарқ”2020.
3. То'хта Boboyev. Adabiyotshunoslik asoslari. O'zbekiston nashriyoti. Toshkent-2002.
4. Dilmurod Qur'onov. Adabiyotshunoslikka kirish . Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. Toshkent- 2004.

